Suropov Ixtiyor Maydonovich,
Osiyo texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasi assisent o'q ituvchisi

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING PSIXOLOGO-PEDAGOGIK ASPEKTLARI

UO'K: 37.04:37.02:159.9
HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2024_ISSUE_12_4

SUROPOV I.M. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING PSIXOLOGO-PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Mazkur maqolada oliy ta'limda talabalarni o'qituvchilikka tayyorlash jarayonida raqamli ta'lim muhitidan foydalanishning psixologo-pedagogik jihatlarini hisobga olish, talabalarni tadqiqotchilik, loyihalashtirish malakalarini shakllantirish va kasbiy kompetentlik, kasbiy o'zini–o'zi anglashga yo'naltirish muhimligi ochib berilgan.

Таянч сўз ва тушунчалар: ijtimoiy-psixologik omil, pedagogik muloqot, empatiya, hissiy barqarorlik, onglilik, oqilona ishonuvchanlik, tadqiqotchilik, loyihalashtirish, kasbiy kompetentlik, kasbiy o'zini–o'zi anglash.

СУРОПОВ И.М. ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

В данной статье раскрывается важность учета психолого-педагогических аспектов использования цифровой образовательной среды в процессе подготовки студентов к преподаванию в высшей школе, ориентации студента на формирование исследовательских, проектных навыков самосознание и профессиональной компетентности.

Ключевые слова и понятия: социально-психологический фактор, сочувствие, педагогическое общение, эмоциональная устойчивость, осознанность, рациональная благонадежность, исследование, проектирование, профессиональная компетентность, профессиональное самосознание.

SUROPOV I.M. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF TRAINING FUTURE HISTORY TEACHERS IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

This article reveals the importance of taking into account the psychological and pedagogical aspects of using the digital educational environment in the process of preparing students for teaching in higher education, focusing the student on the formation of research, project skills, self-awareness and professional competence.

Keywords and concepts: socio-psychological factor, pedagogical communication, empathy, emotional stability, awareness, rational trustworthiness, research, design, professional competence, professional self-awareness.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil, 5 oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish, xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlanganligi uzluksiz ta’limda raqamli ta’lim muhitini tashkil etish, undan samarali foydalanishni nazarda tutadi[1].

Mavzuning dolzarbligi raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ulardagi psixologo-pedagogik jihatlarni hisobga olish, kasbiy o‘zini-o‘zi anglash, pedagogik muloqot, o‘qituvchining kasbiy professiogrammasini talabalarga tushuntirib yetkazish yetarli darajada emasligi bilan belgilanadi.

Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

O‘qituvchilarni psixologo-pedagogik tayyorlashning tuzilishi, mazmuni shaxs sifatida alohida kasbiy rivojlanib borishini juda ko‘p olimlar tadqiq etilgan. Ijodkorlikning psixologik jihati (B.G.Ananyev, D.B.Bogoyavlenskaya, Ya.A.Ponomarev, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn) «rivojlanish» tushunchasi bilan ajralib turadi. Insonning rivojlanish jarayoni tug'ma va orttirilgan xususiyatlarning sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladigan shaxs shakllanishining jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatlarini ifodalashini yoritib berganlar[2].

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatning psixologik tuzilishi pedagogik tizim faoliyatining o‘ziga xos ifodasi ekanligini ta’kidlaydi. Uning nuqtai nazaricha, faoliyatning psixologik tuzilishi qo‘yilgan maqsadga erishish uchun pedagogik vazifani yechishga yo‘naltirilgan pedagogning tizimli va ketma-ket harakatidir[3].

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatga murakkab dinamik sistema sifatida qaraydi va faoliyat tezligi va muvaffaqiyati asosida o‘qituvchilarni uch guruhga bo‘ladi:

– kasbiy malakalarni tez o‘zlashtiradi, o‘z faoliyatida tezda muvaffaqiyatga erishadi, dars qoldirmaydi.

– kasbiy sifatlarni sekin o‘zlashtiradi, ba’zan dars qoldiradi, ammo pedagogik xususiyatlarni sekin-asta bo‘lsa-da o‘zlashtirib oladi.

– ko‘p yillik faoliyati davomida ham o‘qituvchilik qobiliyatini egallamaydi.

Al Beruniy ta’lim jarayonining mohiyatini chuqur tahlil qilib, o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligiga qator didaktik va psixologik talablar qo‘yadi, hamda pedagogik faoliyatida quyidagilarga amal qilishni tavsiya etadi:

- sezgi organlarining ma’lumotlariga ko‘ra bilishni davom ettirish;
- fanni o‘rganayotganda fikrlash, xotirlab esga olish;
- o‘rganilayotgan ilmlarni to‘la bilib olish uchun, o‘sha ilmni tashkil etib turgan elementlarni puxta o‘rganib chiqish;
- bilimda oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga, yaqindan-uzoqqa, osondan-qiyinga, dalillardan-xulosalarga qarab borish;
- uzoq o‘tmishga oid bilimlarni o‘rganganda shu ilm, fan tarixini o‘rganish;
- hodisalarni, fan asoslarini bir-birlariga taqqoslab, solishtirib, har tomonlama aloqadorlikda o‘rganish lozimligini ko‘rsatib, Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy (973 - 1050) Komenskiydan ancha oldin (17-asr) o‘z

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil, 5 oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5030957 Электрон манба. 2024 йил 19 ноябрда мурожаат этилган.

[2] Каюмова Н.А. Каюмова Н. А. Применение информационных технологий в развитии креативных способностей студентов вузов // Экономика и социум. – 2024. – №. 9 (124). – С. 552-561.

[3] Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / Н.В. Кузьмина. – М.: Высшая школа, 1990. – 119 с.

risolalarida ta’limni ma’lum bir tizim bo’yicha izchillik, ravshanlik, qulaylik, maqsadga muvofiqlik kabi tamoyillar asosida qurish zarurligini ta’kidlagan. U o'z risolalarida axloq muammolariga e'tibor bergan. U o'quv jarayonini juda ko'p mehnat, ko'p kuch, vaqt va sabr-toqat talab qiladigan ish deb hisoblardi. Bilim, Beruniyning fikricha, insonni oliyjanob qiladi, uni mehribon va aqlli qiladi. Beruniy uchun «bilimning sofligidan tashqari» hech narsa yo’q-degan fikrga keladi[1].

Psixolog E.G’.G’oziyev ko’p yillik ilmiy izlanishlariga tayanib, bo’lg’usi o’qituvchilarning kelgusi faoliyatida yetakchi va ustuvor qiymatga ega milliy xususiyatlarini aniqlaydi va ularni maqsadga muvofiq ravishda tartibga keltirib tavsiflaydi Ular:

– andishalilik, bag’rikenglik, dilkashlik, samimiylik;

– ibrat-namunaviylik, sabr-toqatlilik, saxovatlilik;

– pedagogik odoblilik, ma’naviy yuksaklik, kasbga sadoqatlilik;

– yuksak tuyg’ularni egallaganlik, ijtimoiy faollik, nutqiy qobiliyatlilik, tashabbuskorlik) tashkilotchilik kabilar. Mazkur xususiyatlar bo’lg’usi o’qituvchilarning kasbiy faoliyati samarasini ta’minlashning muhim omillari sifatida xizmat qiladi[2].

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, oliy ta’limda talabalarni o’qituvchilikka tayyorlash jarayonida, raqamli ta’lim muhitidan foydalanishda raqamli ta’lim muhitining psixologo-pedagogik jihatlarini hisobga olish, ularga shuni tushuntirib yetkazish muhimligi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’limda talabalarni o’qituvchilikka tayyorlash jaryonida, raqamli ta’lim muhitidan foydalanishda psixologo-pedagogik jihatlarini hisobga olish, ularga shuni tushuntirib etkazish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikamiz oliy ta’lim tizimida talabalarning raqamli ta’lim muhitidan foydalanishda raqamli ta’lim muhitining psixologo-pedagogik jihatlarini hisobga olish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti oliy ta’limda talabalarni o’qituvchilikka tayyorlash jarayonida raqamli ta’lim muhitidan foydalanishda psixologo-pedagogik jihatlarini hisobga olish mazmuni metod va vositalari.

Tadqiqotda tizimlilik, qiyosiy-mantiqiy tahlildan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik manbaini anketa so’rovnomalari natijalari tashkil etdi.

Asosiy qism.

O’qituvchining psixologo-pedagogik faoliyati uni o’z pedagogik faoliyatini aniq sharoitlarda, o’qituvchi sifatida o’ziga topshirilgan vazifani o’qitishning shakl va usullarini muhimligini tushunib yetishi, idrok etishi, mehnat qonunchiligini psixologik o’rganishi va bilishidir.

Pedagogik faoliyatning mazmuni ijtimoiy omillari sifatida o’qituvchining jamiyatdagi o’rni va vazifasi, va jamiyatning o’qituvchi oldiga qo’ygan talabi qaralsa, ijtimoiy-psixologik omil sifatida esa:

- o’qituvchining shaxsi va faoliyati ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida atrofdagi odimlarning o’qituvchi shaxsi va faoliyatiga munosabati, kutayotgan natijalari va;
- o’qituvchining o’z faoliyati sohasidagi maqsadlari va erishgan natijalariga bog’liq bo’ladi.

Ko’pchilik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zamonaviy o’qituvchilar tayyorlash uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyati ochib berilgan.

O’qituvchi professiogrammasi bu aniq bir fan tomonidan o’qituvchiga qo’yiladigan maxsus talablarni o’z ichiga oladi. Bo’lajak o’qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo’yilishini bilish va shu asnoda o’quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogik oliy o’quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo’yicha o’qituvchi professiogrammasi ishlab chiqilishi zarurdir.

Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M.Abdullajonova, Ye.Gladkova, A.Mashkurov, T.Hamrokulov, E.Xidirov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlili qator mutaxassisliklar bo’yicha o’qituvchi professiogrammasining

[1] Мясоедов Е.А.. Развитие педагогических идей А.Р.Беруни в современном образовании. https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-pedagogicheskih-idey-a-r-beruni-v-sovremennom-obrazovanii Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2024. 27-mart. Электрон манба. 2024 йил 18 ноябрда мурожаат этилган. Таржима мақола муаллифи томонидан бажарилган.

[2] Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти нашриёти. 2010.

tarkibiy qismi sifatida o'qituvchining shaxsiy xislatlari, ijodiy hislatlari, o'z kasbiga xos xislatlari, kasbiga xos bilimi, shaxsiy pedagogik uddaburonligi aniqlab olish imkoniyatini ochib berganlar[1].

Atrofdagilarga xushmuomalalik va hurmat bilan munosabatda bo'lish odati ustunlik qiladi. O'qituvchilarda yetarli darajada kasbiy bilimdonlik bilan birga, ijtimoiy-tipik xulqlarida xarakterni: yuqori darajada o'zini nazorat qilish, hissiy barqarorlik, onglilik, oqilona ishonuvchanlik, xushmuomalalik, o'zini ichdan nazorat qilish o'ziga xos psixologik xislatlarini namoyon etadilar.

O'zini tuta bilish va amaliyotchilik omili ustun bo'lgan o'qituvchilarning ijtimoiy-psixologik qiyofasida o'zining hissiyoti va kayfiyatini boshqara olish, o'zini nazorat qilish, uyushqoqlik, ijtimoiy intizomlilik, o'ziga ishonish va kirishimlilik yuqori darajada bo'ladi. Ular kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga intiladilar, tashkilotchilik, kommunikativ sifatlari ustunlik qiladi. O'qituvchining o'z millatiga xosligi omili ustun pedagog o'ziga yuqori darajada yaxshi munosabatda bo'ladi, vazmin, bilimdon, o'zini nazorat qila oladi, o'quv faoliyatida tashkilotchilik, axborot almashinuv, kommunikativ sifatlari yuqori samaradorlik bilan amalga oshiriladi.

O'qituvchining obro'si va ijtimoiy tipiga o'xshashlik omili ustun muallimlar pedagogik faoliyatning axborot almashinuv, tashkilotchilik, yo'naltirish, kamol toptirish, kommunikativ sifatlarini yetarlicha mohirlik bilan amalga oshiradilar. Ular obro'-e'tiborli bo'lib, o'zini kuchli nazorat qiladi, hissiy barqaror, milliy-madaniy an'analarni yaxshi biladi,ularga qat'iy amal qiladi.

Kasbiy o'zini-o'zi anglash odatda shaxsning o'z-o'zini anglash umumiy tuzilishiga tegishli, bunda kasbiy diqqat, tafakkur, xotira, his-tuyg'uli kechinma, iroda va boshqalar nazarda tutiladi.

Empatiya psixik ta'sirning maxsus shakli hisoblanadi va insonning atrof-muhitni anglashida muhim rol o'ynaydi. Empatiya bu shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatidir. U o'z ichiga empatiyaning ham obyekti ham subyektiga namoyon bo'ladigan shaxsning ijtimoiy psixologik qobiliyatlari yig'indisidir. Bunday qobiliyatlarga: boshqa birovning kechinmalariga his tuyg'uli reaksiya bera olish qobiliyatini, emotsional holatlarini anglash qobiliyati va xatti-haraktlari, o'ylari hissiyotlariga xayolan o'zini ko'chira olish, dardlarini yengillatish va o'zaro munosabatlarga kirishish usullaridan foydalana olish qobiliyatlari kiradi.

Raqamli ta'lim muhitida *pedagogik muloqot* - o'qituvchining talaba bilan raqamli texnologiya (kompyuter,mobil qurilmalari, zoom va boshqa) laridan foydalanib muloqotda bo'lishini xarakterlaydi. Pedagogik muloqot ta'sirchanligi o'qituvchining nazokati va muloqot qobiliyatining rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Bo'lajak o'qituvchiklar oliy ta'lim muassasasida o'qib - o'rganishi davomida pedagogika, psixologiya, mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi va mutaxassislik fanlarini o'qib, o'qituvchilik faoliyatini olib borishga tayyorlanadilar. Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchining professiogrammasini quyidagicha ifodalash mumkin (1- расм).


1-rasmdagi bo'lajak o'qituvchining professiogrammasida ko'rsatilgan I, II va III bandlar psixolog olimlar tomonidan tadqiq etib yoritib berilgan, biz raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning pedagogik aspektlarini o'qituvchi professiogrammasida quyidagi qo'shimchalar sifatida kiritishimiz mumkin deb hisobladik.

Tadqiqotchilik malakalari. Har bir insonda bolaligidanoq o'zining ichki kechinmalarini ochishga va borliqning eng ichki sirlariga kirib borishga intilish namoyon bo'ladi. Aynan maktabda fanning turli sohalariga qiziquvchilarga yordam berish, ularning reja va orzularini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini to'liq ochib berishga ko'maklashish zarur. Ma'lumki, maktabga kelgan bola tabiatan tadqiqotchidir chunki, izlanuvchanlikka aylanib ketadigan qiziquvchanlik, go'yo kelajakdagi tadqiqot faoliyatining fundamental asosi hisoblanadi[2].

[1] Каюмова Н.А. Электрон таълим муҳитида бўлажак информатика ўқитувчиларини интегратив ёндашув асосида тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. Докт. дис. – Т.: 2022. - 315 б. 2022/3/29.

[2] Рябова Л.Г. Исследовательская деятельность учащихся. Открытый урок. - https://urok.1sept.ru/articles/581619. Электрон манба. 2024 йил 22 ноябрда мурожаат этилган. Таржима мақола муаллифи томонидан бажарилган.

1- rasm. O'qituvchining kasbiy professiogrammasi sxemasi[1].



Raqamli ta'lim muhitida darsni, o'quv-tarbiya tadbirlarini tanqidiy tahlil qila olish, ta'lim-tarbiyaga oid pedagogik tajribalarni ishlab chiqish va o'tkazishi boshqa o'qituvchilarning tajribalarini tahlil qilish va ulardan tanqidiy foydalanish, ilmiy va pedagogik ijodiyotga qiziqishi, ilmiy maqola va tezislar yozish, mulohaza yuritganda fikrlashning dialektik usulini qo'llashi kabilar kiradi.

Talabalarni ilmiy tadqiqot ishiga yo'naltirish uchun ularga tahlil va sintez, taqqoslash, sinflash, modellashtirish, kuzatish, tajriba va suhbat o'tkazish, kabi tadqiqot metodlaridan qanday foydalanishni o'rgatish zarur. Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirishda o'qituvchining asosiy vazifasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin[2]:

- talabalarda ilmiy ishga bo'lgan qiziqishni oshirish, ilmiy tadqiqot masalalarini mustaqil yechishga undash, tadqiqotchilik malakalarini shakllantirish;
- mustaqil ijodiy fikrlashni, nazariy, amaliy bilimlarni o'rganishni mukammallashtirish, mustahkamlash va rivojlantirib borish;
- bo'lajak tarix o'qituvchilarini ilmiy tadqiqotchilik mahoratlarini shakllantirishga erishish
- iste'dodli va iqtidorli talabalarning ijodiy va ilmiy salohiyatidan foydalanib dolzarb muammolarni hal etish va uni barcha talabalarga o'rnak sifatida ko'rsatib borish va h.k.

Raqamli ta'lim muhitida ilmiy tadqiqot ishining har xil bosqichida ilmiy rahbar, professor-o'qituvchining roli har xil bo'ladi. Masalan:

– tashxislash bosqichida o'qituvchi ilmiy tadqiqot olib borishga moyilligi bor, bilimli, topshiriqlarni mustaqil bajara oladigan talabalarni to'playdi, ularni qiziqish sohasi, qanday turdagi ishlarni bajara olishini aniqlaydi, ilmiy tadqiqot olib borishga undaydi. Bunda talaba bilan o'qituvchi o'rtasida munosabatni yaqinlashtirishda o'qituvchi ustun, faol bo'lishi, imkon qadar muloqot jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

– tadqiqot mavzuni qo'yish bosqichida o'qituvchi bir nechta turdagi mavzular ustida ishlashga yo'naltiradi, buning uchun mamlakatimiz va xorijiy ilmiy jurnallarning, tadqiqot e'lonlari chiqadigan, internet manzillari bilan tanishtiradi. Ilmiy rahbar tadqiqotchi bilan hamkorlikda mavzuni belgilab oladi, mavzuni dolzarbligi, maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi aniqlanadi. Bunda o'qituvchi maslahatchi rolini o'ynaydi, o'qituvchining o'rni

[1] Sxema Suropov Ixtiyor tomonidan mavjud axborotlar asosida tayyorlandi.

[2] Каюмова Н. А. Олий таълим муассасалари талабаларини илмий тадқиқот ишига йўналтириш муаммолари ва уларнинг ечимлари // Современное образование (Узбекистан). – 2018. – №. 11. – С. 7-13.

ustun, faol bo'lmaydi, ko'proq tadqiqotchi ustun bo'lishiga erishish kerak bo'ladi.

– ilmiy tadqiqot ishini bajarish bosqichida o'qituvchi maslahatchi bo'lib, tadqiqotchi yoki talabaga yuqori darajada mustaqillik berilishi kerak. Talaba ilmiy tadqiqotchi sifatida mavzu mundarijasi asosida ishni mustaqil bajarishi, o'qituvchi turli yo'naltiruvchi, muammoni ochishga yordam beruvchi savollarni berib turishi talab etiladi. Aynan shu bosqichda talaba tadqiqot metodlaridan foydalanadi va o'z tadqiqot ishi bo'yicha shaxsiy fikrga ega bo'lib, mustaqil qarorlar qabul qiladi, xulosa va takliflar berishni o'rganadi, ishni yakunlaydi.

– himoya qilish bosqichida olib borilgan ilmiy faoliyat tahlil qilinadi. Bu vaqtda talaba va ilmiy rahbar, o'qituvchi teng huquqli hamkorlar hisoblanadi. Himoya so'ngida olib borilgan faoliyat baholanadi.

Talabalar bilan ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borish o'qituvchiga quyidagi talablarni qo'yadi:

- talabaga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish, unga shaxs sifatida hurmat ko'rsatish;
- talabani boshqalarga o'xshamaydigan xususiyatlarini e'tirof etib turish, unga tanlash huquqi, erkinligini berish;
- talabani individual, psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uni o'ziga emas, olib borgan faoliyatiga baho berish va h.k.
- Raqamli ta'lim muhitida talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish ta'limiy, tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lib, u talabani maqsadga erishishida o'z kuchi va qudratiga ishonishi, bilishga bo'lgan istakni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, fikrlash mustaqilligini, o'z ishidan mamnunlik, estetik ehtiyojni qondirish va ilmning ichki go'zalligini o'rganib borishga yaqindan yordam beradi.

Loyihalashtirish malakalari. Amaliy ish loyihasini shakllantirish uchun mavzu va maqsadni belgilash, pedagogik faoliyatda maqsadga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarni belgilash, har bir mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzish[1], o'qitishda raqamli ta'lim muhitidan, fanlar integratsiyadan foydalanish, o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, nazorat qilish uchun o'quv manbalarini tanlay bilish, fanni o'qitish uchun o'quv qurollari manbalarini boyitib borishdan iborat.

Pedagogik loyihalash - pedagogning pedagogik masalalarni yechishga qaratilgan ketma-ket o'zaro bog'liq harakatlari tizimi yoki oldindan rejalashtirilgan pedagogik jarayonning amaliyotga ketma-ket mujassamlanishidir.

Pedagogika fani rivojlanishining hozirgi bosqichida loyihalash pedagogik faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanib, loyihalash jarayoni turli darajadagi ta'lim tizimlarini, ta'lim mazmunini, pedagogik texnologiyalarni, pedagogik jarayonni boshqarishni, ta'lim rivojlanishini rejalashtirish va nazorat qilishni o'z ichiga oladi[2].

V.S.Bezrukovaning fikricha "*Loyihaviy faoliyat* - bu birinchi galda pedagoglar va ta'lim oluvchilarning bo'lajak faoliyatning asosiy qismlarini ishlab chiqishdan iborat jarayondir"[3].

Loyihaning amalga oshirish tayyorgarlik ko'rish, loyihani tayyorlash, loyihani amalga oshirib yakunlash, xulosa va tavsiyalar berish kabi bosqichlardan tashkil topadi. Raqamli ta'lim muhitida loyihalashtirish va tadqiqotchilik malakalarini egallash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi.

O'qituvchining loyihalashtirish faoliyatini shakllantirish jarayonida tuzilgan loyihalar bashoratchilik, bosqichma-bosqichlik, me'yorlash, teskari aloqadorlik, o'xshashlik, o'zini-o'zi rivojlantirish tamoyillariga amal qilishini alohida uqtirib o'tish lozim.

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak tarix fani o'qituvchisining loyihalash malakalari quyidagi baholash mezonlariga mos bo'lishi lozim:

[1] Зайцева И.И. Технологическая карта урока. Методическая рекомендация. Педагогическая мастерская. Всё для учителя! Пилотный выпуск 2011. http://www.e-osnova.ru/PDF/osnova_14_7_656.pdf Электрон манба. 2024 йил 24 ноябрда мурожаат этилган. Таржима мақола муаллифи томонидан бажарилган.

[2] Везетиу Е. В. Теоретические основы педагогического проектирования. Проблемы современного педагогического образования. Jurnal. https://cyberleninka.ru/article/n/ teoreticheskie-osnovy-pedagogicheskogo-proektirovaniya. Электрон манба. 2024 йил 24 ноябрда мурожаат этилган. Таржима муаллиф томонидан бажарилган.

[3] Безрукова В.С. Педагогика. Проективная педагогика. Учебная пособия. – Екатеринбург.: Деловая книга, 2006. 344 ст. https://www.twirpx.com/file/400074/. Электрон манба. 2024 йил 24 ноябрда мурожаат этилган. Таржима муаллиф томонидан бажарилган.

- loyihalashtirishda quyilgan muammolarning dolzarbligi, o'rganilayotgan mavzuga mosligi;
- loyihalashtirish jarayonida foydalaniladigan tadqiqot uslublarining olingan natijalarga muvofiqligi;
- loyiha yaratuvchisi va uning ishtirokchilarini faolligi;
- qabul qilingan qarorlarning to'g'riligi va jamoaviy mazmun kasb etishi;
- loyiha ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi, bir-biriga yordam va to'ldiruvchanlikning mavjudligi;
- qo'yilgan muammoga zaruriy va yetarlicha kirish, boshqa sohalardagi bilimlar (metapredmetli yondashuv)ni jalb etilganligi;
- qabul qilingan qarorlarni isbotlash o'z fikr va xulosalarni asoslay olish imkoniyatining borligi;
- yaratilgan loyiha natijalarining ilmiy tahlil qilish va rasmiylashtirish mumkinligi;
- loyiha taqrizchilarining har qanday savollariga javob bera olish qobiliyatining mavjudligi va h.k.

Kasbiy kompetentlik. *Kompetentlik* - bu shaxsning kasbiy va shaxsiy sifatlari va xususiyatlari bo'lib, bilim, ko'nikma va ularni amaliy faoliyatda qo'llash tajribalarini hamda mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Pedagog olimlarning ishlarini o'rgangan holda kompetentlik shaxsning murakkab ijtimoiy-kasbiy qobiliyati sifatida qaralsa, kompetensiya esa, shaxsiy xususiyatlar kasbiy tayyorgarlikni o'zida mujassam etadi. Kompetentlik o'z ichiga kompetensiya tizimini qamrab olib, shaxsning amaliy vaziyatlarda faol ishtirok etishi, muammoli holatlarda maqbul yechimni izlab topishda, o'z-o'zini takomillashtirib borish qobiliyatidir.

Pedagogik mahorat zamirida pedagogik kompetentlik yotadi. Pedagogik kompetentlik deganda pedagogik funksiyalarni muayyan tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar, standartlar va talablarga muvofiq bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi kasbiy shaxsiy tavsif tushuniladi. kasbiy pedagogik kompetentlik, pedagogik voqelikni tizimli tushunish va unda tizimli ish ko'rish ko'nikmasini o'z ichiga oladi. Pedagogik kompetentlik, bizning fikrimizcha, shaxsning pedagogik jarayondagi amaliy vaziyatlarda faol ishtirok etib, sodir bo'ladigan muammoli holatlarni chuqur bilim, malaka asosida tezda bartaraf eta olishi va bu jarayonda o'zi ham rivojlanib borishini tushunamiz.

Bo'lajak o'qituvchining raqamli ta'lim muhitida kasbiy faoliyatini baholash mezonlarini quyidagi daraja va ko'rsatkichlarga ajratishimiz mumkin.

- yuqori bilim va yetarli tajriba;
- yuqori bilim, kam tajriba;
- kam bilim, yetarli tajriba;
- past bilim, kam tajriba mavjudligi aniqlandi.

Kasbiy o'z-o'zini anglash. Fan o'qituvchisi raqamli ta'lim muhitida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini o'z kasbiga tayyorlar ekan, unda o'zini-o'zi anglash vujudga kelish jarayoni ro'y beradi. Ya'ni, o'qituvchi subyekt sifatida o'z xususiyatlari, qobiliyati, ijtimoiy ahamiyatliligini tushunib yetsa, o'z psixikasi (kasbiy diqqat, tafakkur, xotira, his-tuyg'uli kechinma, iroda va boshqalar)ni tahlil qila olsa, kasbiy bilimlarni egallasa, obrazli, jo'shqin fikr yuritsa, aniq vaziyatlarda pedagogik faoliyatni tashkil eta olsa, o'z kasbiy faoliyati va kasbiy bilimlarini adolatli baholay olsa, ta'lim - tarbiya jarayonida o'zini ham obyekt, ham subyekt vaziyatlarida ko'ra olsagina kasbiy o'z-o'zini anglash vujudga keladi.

O'qituvchi raqamli ta'lim muhitida *kasbiy o'zini-o'zi anglashi uchun* quyidagilarni bilishi shart:

- fan o'qituvchisining maqsadi va vazifasini anglab olishi;
- fan o'qituvchisi bo'lishi uchun kasbiy ishtiyoqning mavjudligini anglashi;
- pedagogik faoliyatda xotiraning mustahkamligi, tafakkurning mukamalligi, diqqatning bo'linuvchanligiga erishish;
- har qanday sharoitda emotsiyaga berilib ketmaslik, persepsiya – ko'pgina o'quv materialidan asosiylarini ajrata bilishi, raqamli ta'lim muhitidan foydalanib fanni mazmunini o'quvchilarga yetkazib berishi;
- raqamli ta'lim muhitiga oid bilimlarni chuqur egallaganligi, uning darajasini baholay olishni fahmlab yetish;

2-jadval. Respondentlarning kasbiy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

№	Kasbiy professiogramma yo‘nalishlari	Respondentlar soni	Foizi
1	Kasbiy o‘zini-o‘zi anglash	57	38%
2	Kasbiy kompetentlik	48	32%
3	Loyihalashtirish malakalari	33	22%
4	Tadqiqotchilik malakalari	12	8%
	Jami	150	100%

● raqamli ta’lim vositalaridan foydalanib ma’ruza, amaliy, laboratoriya darslarini tashkil etishi, bu darslarning o’zaro farqli, bir-biriga mos bosqichlarini anglab yetishi;

raqamli ta’lim muhitida tashkil etilgan darslarni ham obyekt, ham subyekt sifatida tahlil qila olishi va h.k.

Empirik o‘rganish natijalari.

Osiyo texnologiyalar universiteti tarix yo‘nalishi birinchi kurs 24-11, 24-12, ikkinchi kurs 23-14, 23-15 guruglarining ishtirokida so‘rovnoma olib borildi[1]. So‘rovnoma tadqiqotchi I.Suropov tomonidan tayyorlandi. So‘rovnomaning asosi pedagogik jihatdan raqamli texnologiyalar bilan ishlash tajribalari, ta'lim olishda va berishda raqamli platformalar (Hemis.uz, Ziyonet.uz, bilim.uz kabilar)dan foydalanishi, online darslarda faol ishtiroki, raqamli ta'limda o'z vaqtida topshiriqlarni bajarishi, Kahoot va Quizz dasturlarida tarix fani bo’yisha testlar yaratishi, raqamli resurslardan foydalanishni mustaqil o'rganishga tayyorligini, loyiha nimaligini tushunib yetishi raqamli texnologiyadan foydalanib kichik loyiha yaratishi, mustaqil ijodiy fikrlashni, nazariy, amaliy bilimlarni mustaqil o’rganishi, mustaqil qaror qabul qilishi va boshqalar hisobga olindi. Psixologik jihatdan esa, tarix faniga qiziqishi onlayn o'qishda o'zini qanday his qilishi, yangi texnologiyalarni o'rganishga qiziqishi, raqamli ta'limda kasbiy motivatsiysiani saqlab qolishi, his qilishi, guruh bilan muloqotni, kazbiy xotira, iroda kabilarni yetarli yoki yetarli bo’lmasligi va boshqalar.

Bo’lajak tarix fani o’qituvchilari ya’ni talabalarning raqamli ta’lim muhitida pedagogik va psixologik jihatdan tayyorgarligi haqidagi test so’rovida 150 ta talabalarning fikri o’rganildi. Unga ko’ra, bo’lajak tarix o’qituvchilarida raqamli ta’lim muhitidan foydalanish 38%, kasbiy kompetentlik 32%, loyihalashtirish malakalari 22%, tadqiqotchilik malakalari esa, 8%ga ega ekanliklarini ko’rsatdi (2-jadval).

Xulosalar. Agar biz oliy ta’lim muassasasida raqamli ta’lim muhitidan foydalanib tarix o’qituvchisini tayyorlashda bo’lajak o’qituvchilarni o’z faoliyatini tadqiqotchilikka yo’naltirish, loyihalashtirishga, kasbiy o’zini-o’zi anglashga kasbiy kompetentligini oshirishga o’rgatib borsak, ularda ta’limni bashoratlash, teskari aloqani o’rnata olish, pedagogik va axborot texnologiyalaridan me’yorda foydalanish, o’z-o’zini rivojlantirib borish va nihoyat ta’lim sifati va samaradorligiga erishish xususiyatlarini vujudga keltirishga erishamiz.

Shunday qilib, talabalarning raqamli ta’lim muhitida pedagogik jihatdan tayyorgarligini baholashda:

● raqamli texnologiyalar bilan ishlash tajribalar qanday darajadaligi:

● ta'lim olishda raqamli platformalardan foydalanishni afzal ko’rishi;

● online darslarda faol ishtirok eta olishini hisobga olish;

● raqamli ta'limda o'z vaqtida topshiriqlarni bajarishda duch keladigan qiyinchiliklarni anglab etishiga erishish;

● raqamli resurslardan foydalanishni mustaqil o'rganishga tayyorligini tushunib etish kerak bo’ladi.

Raqamli ta’lim muhitida talabalarning psixologik holatini baholashda:

– onlayn o'qishda o'zini qanday his qilashini hisobga olish;

– raqamli ta'limda kasbiy motivatsiysiani saqlab qolishga erishish;

– yangi texnologiyalarni o'rganishga qiziqishi, o'zini his qilishi;

– guruh bilan muloqot yetarli bo'lmaganda talabaga qanday ta'sir qilishini hisobga olish zarur bo’ladi.

[1] So'rovnoma tadqiqotchi I.Suropov tomonidan tayorlanib, tarix yo’nalishi talabalarining “Raqamli tarix” fanining fan dasturi asosida olib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil, 5 oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5030957 Электрон манба. 2024 йил 19 ноябрда мурожаат этилган.

2. Безрукова В.С. Педагогика. Проективная педагогика. Учебная пособия. – Екатеринбург: Деловая книга, 2006. 344 ст. https://www.twirpx.com/file/400074/. Электрон манба. 2024 йил 24 ноябрда мурожаат этилган. Таржима мақола муаллифи томонидан бажарилган.

3. Везетиу Е.В. Теоретические основы педагогического проектирования. Проблемы современного педагогического образования. Jurnal. https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-osnovy-pedagogicheskogo-proektirovaniya Электрон манба. 2024 йил 24 ноябрда мурожаат этилган. Таржима мақола муаллифи томонидан бажарилган.

4. Мясоедов Е.А. Развитие педагогических идей А.Р.Беруни в современном образовании. https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-pedagogicheskih-idey-a-r-beruni-v-sovremennom-obrazovanii Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2024. 27-mart. Электрон манба. 2024 йил 18 ноябрда мурожаат этилган. Таржима мақола муаллифи томонидан бажарилган.

5. Зайцева И.И. Технологическая карта урока. Методическая рекомендация. Педагогическая мастерская. Всё для учителя! Пилотный выпуск 2011. http://www.e-osnova.ru/PDF/osnova_14_7_656.pdf Электрон манба. 2024 йил 24 ноябрда мурожаат этилган. Таржима мақола муаллифи томонидан бажарилган.

6. Каюмова Н. А. Олий таълим муассасалари талабаларини илмий тадқиқот ишига йўналтириш муаммолари ва уларнинг ечимлари //Современное образование (Узбекистан). – 2018. – №. 11. – С. 7-13.

7. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / Н. В. Кузьмина. – М.: Высшая школа, 1990. – 119 с.

8. Каюмова Н.А. Электрон таълим муҳитида бўлажак информатика ўқитувчиларини интегратив ёндашув асосида тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. Докт. дис. – Т.: 2022. - 315 б. 2022/3/29.

9. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / Н.В. Кузьмина. – М.: Высшая школа, 1990. – 119 с.

10. Рябова Л.Г. Исследовательская деятельность учащихся. Открытый урок. - https://urok.1sept.ru/articles/581619. Электрон манба. 2024 йил 22 ноябрда мурожаат этилган. Таржима муаллиф томонидан бажарилган.

11. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти нашриёти. 2010.